

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2021 Vol. 4

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

2021 Vol. 4

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o‘rinbosarlari:** Zaynobiddin Abdirashidov  
Qosimboy Ma‘murov  
**Mas‘ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo‘raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G‘aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullayev.

### **Tahrir hay‘ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O‘zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O‘zbekiston)	Dilorom Ashurova (O‘zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O‘zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san‘at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o‘rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to‘rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g‘oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e‘lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e‘lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Deputy Editors in Chief:** Zaynabiddin Abdirashidov  
Kasimbay Mamurov  
**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Anvar Sayfullaev.

### Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Tolib Enazarov**

Dialektal matnlarning leksik tahlili metodi.....6

#### **Jo'ra Xudoyberdiyev**

Birinchi turkologiya qurultoyining chaqirilishi va maqsadi haqida.....19

#### **Manzura Abjalova**

Lingvistik ontologiya – leksik ma'lumotlar bazasi.....39

#### **Dilafroz Muhammadiyeva**

“Boburnoma”ning turkiy tillardagi tarjimalarida  
paremiyalarning aks etishi.....60

#### **Zoxira Xidraliyeva**

O'zbek tilining Iqon shevasi vokalizmini areal o'rganishga doir.....74

### **Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik**

#### **Shahnoza Rahmonova**

XX asr ikkinchi yarmi she'riyatida g'azal janri poetikasi.....90

#### **Gulnoza Jo'rayeva**

Bolalar hajviy she'riyati – ma'rifiy va estetik tarbiya quroli  
sifatida.....103

### **Din. Falsafa. Ilohiyot**

#### **Bahriddin Umurzoqov**

“Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

# CONTENT

## Linguistics

### **Tolib Enazarov**

Method of lexical analysis of dialectal texts.....6

### **Jura Khudoyberdiyev**

About aims and Organization of the first Turkological Conference.....19

### **Manzura Abjalova**

Linguistic Ontology - Lexical Database.....39

### **Dilafruz Muhammadiyeva**

Reflection of paremies in the translations of “Boburnoma”  
in turkish languages.....60

### **Zakhira Khidralieva**

On the study of the Ikan dialectvocalism of the Uzbek language.....74

## Literature. Translation studies

### **Shahnoza Rahmonova**

Poetics of the ghazal genre in uzbek poetry of the second  
half of the XX century.....90

### **Gulnoza Jurayeva**

Children's comic poetry as a mean of educational and  
aesthetic education.....103

## Religion. Philosophy. Theology

### **Bahriddin Umurzoqov**

Detailed analysis of the foundations of the Khojagon tariqat  
in the work “Rashakhot”.....118

DIN. FALSAFA. ILOHIYOT  
RELIGION. PHILOSOPHY. THEOLOGY

## “Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni

Bahriddin Umurzoqov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshgan buyuk ajdodlarimiz boy merosi bugungi kunda dunyo fondlarida saqlanib kelinmoqda va olimlar tomonidan katta qiziqish bilan oʻrganilmoqda. Ajdodlarimizning dunyoqarashi, maʼnaviy-estetik olami, ayniqsa, qoʻlyozma manbalarida oʻzining yorqin, goʻzal ifodasini topgan boʻlib, bu manbalar sogʻlom eʼtiqodli komil insonni tarbiyalashdek muhim va gʻoyat masʼuliyatli ishda eng taʼsirchan va samarali vositalardan biri ekanligi allaqachon eʼtirof etilgan haqiqatdir.

Milliy-maʼnaviy qadriyatlarimiz tiklanib, qadimiy qoʻlyozma merosimiz durdonalarini har tomonlama yanada chuqurroq oʻrganishga davlat siyosati darajasida jiddiy ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda biz koʻhna madaniy merosimizni, uzoq oʻtmishga borib taqaladigan milliy tariximizni teranroq anglab yetmoqdamiz.

Ushbu maqola XVI asrda yashab, oʻzidan boy ilmiy meros qoldirgan yetuk manoqibnavis va tazkiranavis olim Faxruddin Aliy Safiy ibn Husayn Voiz Koshifiy Hiraviyning (1463–1539) Xoja Ubaydulloh Ahrorga bagʻishlab yozgan “Rashahot aynu-l-hayot” (Hayot bulogʻi tomchilari) asari va mazkur asarda kalimot-i qudsiya-i Xojagon (Xojagon tariqati asoslari, prinsiplari) nomi bilan tafsilotli bayon qilingan oʻn bir muborak ibora bayoni, xususan, birinchi Xojagon tariqatining birinchi asosi “Hush dar dam” (har lahza Alloh taolo yodi, Alloh taolo zikri bilan mashgʻul boʻlmoq) iborasining tadqiqi va sharhi tahliliga bagʻishlangan.

**Kalit soʻzlar:** *Aliy Safiy Koshifiy Hiraviy, “Rashahot aynu-l-hayot”, rashha, Xoja Yusuf Hamadoniy - Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniy - Xoja Bahoudin Naqshband, yozdah kalimot-i qudsiya-i Xojagon (Xojagon tariqatining oʻn bir asosi), “Hush dar dam” (har lahza Alloh taolo yodi, Alloh taolo zikri*

<sup>1</sup> *Umurzoqov Bahriddin Safarovich* – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti.

**E-pochta:** bahrumr\_nur@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-8870-156X

**Iqtibos uchun:** Umurzoqov, B. S. 2021. “Rashahot” asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni”. *Ozbekiston: til va madaniyat* 4: 118–130.

## **Kirish**

O‘rta asr musulmon Sharqi tasavvuf adabiyoti va mumtoz adabiyotimizning tub mazmun-mohiyatini adabiy ilmlar barobarida Islom ma‘naviyati, Qur‘oni karim, hadisi shariflar va ayniqsa, tasavvuf ilmisiz mukammal tushunib bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, ilk tasavvufiy asarlar paydo bo‘la boshlagan davr IX asrning ikkinchi yarmi hisoblanadi. X asrning boshlaridan XIII asrgacha tasavvufning mashhur qator asarlari yozildi. Jumladan, Abu Bakr Gulobodiyning “Kitobu-t-Ta‘arruf”, Abdulkarim Qushayriyning “Risolatu-l-Qushayriyya”, Hujviriyning “Kashfu-l-mahjub”, Ibn Zayyotning “at-Tasavvuf” kabi asarlar, haqiqatan, bugungi kun nuqtayi nazaridan ham tasavvuf ilmining nazariy masalalari bayon qilingan eng muhim kitoblar hisoblanadi. Tasavvufning murakkab masalalariga bag‘ishlangan asar sifatida esa Hakim Termiziy (vaf. 908)ning “Xatmu-l-viloya”, Muhyiddin Arabiy (vaf.1241)ning “Futuhot”, “Hikam” asarlari, Fariduddin Attorning “Tazkiratu-l-avliyo”, keyinchalik esa Muhammad G‘azzoliy (vaf.1111)ning “Ithyo-i ulumi-d-din”, “Kimyo-i saodat” kabi Ahli sunnat val-jamoat tasavvufini shariat bilan bog‘lab tushuntirilgan muhim asarlar yozildi.

Hirot ilmiy muhitida “Pir-i Hirot” deya mashhur bo‘lgan shayxu-l-islom Abdulloh Ansoriyning o‘rni beqiyos. Uning “at-Tabaqot” deb nomlangan, aslida Abu Abdurahmon Sulamiyning “Tabaqotu-s-sufiyya”<sup>1</sup> (Sufiylarning tabaqalari) asarining tarjimai bo‘lgan tasavvufiy asari ham o‘ziga xos tasavvufiy asar hisoblanadi. Keyinchalik yana ikki muhim tazkira – “Nafohatu-l-uns” va “Nasoyimu-l-mahabba”<sup>2</sup> asari yozildi (Alisher Navoiy bu asari muqaddimasida “Nasoyim”ni “Nafohatu-l-uns”ning tarjimasidir, degan. Bu holat adibning “Arba’in”i muqaddimasida ham ta’kidlangan. Bu holatni “an’anaviylikda mustaqil asar”, deyish bilan darhol xulosa yasamasdan, bu xususni chuqur tadqiq va tahlil etishimiz lozim – B.U.) Mana shu ta’lif va tasniflar ta’sirida yozilgan eng nodir

---

<sup>1</sup> Bu so‘zni “so‘fiy” shaklida yozish va talaffuz qilish noto‘g‘ri. Chunki “so‘fi, so‘fiy” so‘zlari “konus” degan ma‘noni anglatadi. Chunonchi, so‘fito‘rg‘ay. Uning boshidagi toji konus shakliga ega bo‘lgani uchun ham shunday atalgan. “Sufi, Sufiy” so‘zlari esa yung kiyim, ya‘ni g‘oyat oddiy kiyim kiygan, darvishlik yo‘lini, ya‘ni ilm-u irfon va solih amallarni ixtiyor etgan solih zot, ma‘nosidadir.

<sup>2</sup> Zamonaviy tadqiqotlarda ushbu asar nomini “Nasoyimu-l-muhabbat» deb yozish va aynani shu shunday talaffuz etish urf bo‘lgan.



manoqib-tazkiralardan yana biri, shubhasiz, Faxruddin Aliy Safiy qalamiga mansub “Rashahotu ayni-l-hayot” (Hayot bulog‘idan tomchilar) asaridir. “Rashahot” asari tasavvuf adabiyotining va umuman, mumtoz adabiyotimizdagi tarixiy-badiiy nasrning eng sara namunalaridan biri hisoblanadi.

### **Faxruddin Aliy Safiyning “Rashahot” asarida Xojagon tariqati (yo‘li) asoslari bayoni va “Hush dar dam” kalimasi sharhi**

Faxruddin Aliy Safiyning adabiy-ilmiy merosini, xususan, uning Xoja Ahror Valiyga bag‘ishlab yozilgan, aslida Xojagon tariqati va mashoyixi haqida tafsilotli ma‘lumotlar beruvchi – “Rashahot” asarining tub mohiyatini ham adabiy va tasavvuf ilmlarisiz to‘g‘ri idrok qilish qiyin.

“Rashahot” asarining “Maqola” deb nomlangan “Muqaddima” (Kirish) qismida Xojagon tariqati (yo‘li) asoslari to‘liq bayon qilingan. Asarda Xojagon tariqati mazmun-mohiyatini ifodalaydigan ikkinchi muhim xusus mazkur tariqat qonun-qoidalari, istilohlari va odoblarining sharhidir.

“Rashahot”ning “Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyy quddisa sirruhu (ya‘ni, mozori munavvar bo‘lsin, qabri nurlarga to‘lsin)” zikrida “rashha” sarlavhasi ostida jami o‘n uchta rashha-izoh (kichik bo‘limlar) bor. “Rashha” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “qatra, tomchi, peshonadan oqqan ter”, degani. “Rashahot” kalimasi “rashha”ning ko‘plik shakli bo‘lib, “tomchilar”, demakdir. Aliy Safiy o‘z asarida “Rashahot” va “rashha” deganida, u bu ikki so‘zni lug‘aviy ma‘nosida emas, balki istilohiy hamda ramziy ma‘noda, ya‘ni “ma‘rifat tomchilari” ma‘nosida qo‘llagan.

Ularda quyidagi mavzular haqida so‘z boradi:

**1-rashha.** “Oytibdurlarkim, “Vasiyat qilurman sanga, ey, farzandim...” deb boshlangan birinchi rashhada, asosan, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyyning “Vasiyatnoma”si keltirilgan.

Keyingi rashhalarda Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniyyning ilk sakkiz qudsiy (muborak, muqaddas) kalimalari, va so‘ng qudsiy kalimalardan yana uchtasi, ya‘ni “kalimot-i vuqufot” (hol, holatga doir iboralar) birma-bir sanalgan bo‘lib, bu muborak kalimalar bugungi kunda yurtimiz va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan asosan “Naqshbandiyya asoslari yoki prinsiplari” deb nomlanib kelinmoqda:

رشحه و هم از کلمات قدسیه حضرت خواجه است این هشت عبارات که بناء طریقہ خواجهکان قدس الله تعالی ارواحهم برآنست : هوش در دم نظر بر قدم سفر در وطن خلوت در انجمن یاد کرد باز کشت نکاهداشت یادداشت

1-rashha. ... bu iboralar Xojagon tariqatining asoslari hisoblanur, ushbu sakkiz muborak soʻzlar (iboralar)dir: “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar vatan”, “Xilvat dar anjuman”, “Yod kard”, “Bozgasht”, “Nigoh dosht” , “Yod dosht” [Rashahot 20].

2 - rashha. *“Hush dar dam”* (har nafasning ogohlik yuzidin boʻlmogʻi) *bayonida*.

3 - rashha. *“Nazar bar qadam”* (yurganda nazarini saqlay bilmoq, yurish-turishida xayoli, odobli boʻlmoq va menlikdan, xud-parastlikdan qutulmoq) *bayonida*.

4- rashha. *“Safar dar vatan”* (bashariy sifatlardan malakiy sifatlariga sayr qilmoq, yomon xulqlardan qutilib, maqtoqli xulqlarga sohib boʻlmoq) *bayonida*.

5- rashha. *“Xilvat dar anjuman”* (zohirda xalq bilan boʻlmoq, botinda esa Alloh taolo bilan boʻlmoq) *bayonida*.

6- rashha. *“Yod kard”* (Alloh taʼoloni til bilan va yo dil bilan sakkiz davomli yod etmoq) *bayonida*.

7- rashha. *“Boz gasht”* (zikrullohdan maqsadi Alloh taoloni va Uning rizosi topmoqlikdir) *bayonida*.

8- rashha. *“Nigoh dosht”* (muroqaba-i xavotir, yaʼni zikrulloh asnosida xayoli va fikri boʻlinmaslik) *bayonida*.

9- rashha. *“Yod dosht”* (nigoh doshtda, yaʼni xavotirni jamlashda muvaffaqiyatga erisha bilmoq) *bayonida*.

Xojagon tariqatining muborak kalimalari haqida juda ham koʻp yozilgan boʻlib, tadqiqotlarda mazkur oʻn bir iboraning ilk toʻrttasi Xoja Yusuf Hamadoniyga, toʻrttasi Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniya va “kalimot-i vuqufot” deb nomlangan uch ibora esa Xoja Bahouddin Naqshbandga nisbat berilgan [Ғиждувоний 2018, 95].

S.Sayfullohga koʻra “Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniya hazratlari xojagonlar silsilasining haqiqiy asoschisi va bunyodkori boʻlib, naqshbandiya tariqatidagi 11 ta usulning sakkiztasini asoslab, oʻz faoliyatida qatʼiy yoʻlga qoʻygan. Qolgan uch ibora esa Bahouddin Naqshbandga tegishli” [Ғиждувоний 2018, 96].

Ammo Turkiyalik tadqiqodchi, doktor Nejdlat Toʻsun oʻz manografiyasida bu fikrni maʼqullamaydi [Necdet 334]. Bizningcha N.Toʻsunning mazkur Xojagon iboralar haqidagi ilmiy tahlil va xulosalari eʼtiborga molik. Zero, Xojagonning sakkiz muborak iborasi, haqiqatan, Xoja Abdulxoliq Gʻijduvoniygacha ham mavjud boʻlgan. Qolgan “uch vuquf” (uch muborak ibora), yaʼni *“Vuquf-i zamoniya”* (inson oʻz ahvolidan xabardor boʻlsin, yaʼni uning holi shukr qiladiganmi va yoki uzr tilaydiganmi), *“Vuquf-i adadiy”* (zikrullohda sanoqqa rioya etmoq. Chunki sanoq parishon xavotirni jamlashga xiz-

mat qilur) va “*Vuquf-i qalbiy*” (ko’ngil ogohlighi, ya’ni Alloh taolo yodi, zikri va muhabbatidan boshqasiga ko’ngilda zinhor joy bermaslik) dir.

Ushbu uch muborak ibora bilan aloqador fikr-mulohazalar, hikmatlar ham Xoja Bahouddin Naqshbanddan oldingi mutasavvuf-lar asarlarida, masalan, Abu Abdurahmon Sulamiyning طبقات الصوفية “*Tabaqotus-sufiyya*” (Sufiylarning tabaqalari) [Tabaqotus-sufiyya 133] va Abdulkarim Qushayriyning الرسالة القشيرية في علم التصوف “*Risolatul-Qushayriyya fiy ilmi-t-tasavvuf*” (Tasavvuf ilmi haqida Qushayriy Risolasi) asarida [Risolatu-l-Qushayriyya ... 63], Gulobodiyning التعرف لمذهب اهل التصوف “*at-Taarruf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf*” (Tasavvuf ahli yo’lini tanishtirish) risolasida ham uchraydi [at-Taarruf ... 57]. Nazarimizda Xoja Bahouddin Naqshband bu oxirgi uch qoida, uch prinsipni o’z suluki amaliyotiga jiddiy va to’liq joriy qilishga erishgan. Shu sabab bu uch kalimot (muborak iboralar) Naqshband hazratlariga nisbat beriladi. Zero, tariqatda solih amal sifatida nazariya emas, balki amaliyot muhimroqdir.

Shu o’rinda yana bir mulohaza, Xoja Yusuf Hamadoniyning risolalarida mazkur ilk *qudsiy kalimalar* (muborak iboralar) – “Hush dar dam”, “Nazar bar qadam”, “Safar dar vatan”, “Xilvat dar anjuman” nomlari bilan bayon qilinmagan. Chunonchi, Xoja Yusuf Hamadoniyning “*Odob-i tariqat*” risolasida tariqatning asoslari sifatida “*uzlat*”, “*nafs riyozati*”, “*nafs tarbiyasi*” kabi xususlar batafsil bayon qilinganini ko’ramiz [Ғиждувоний 2018, 17; Ақобирова 2018, 37]. Nima sababdan ilk *to’rt qudsiy kalima* (muborak iboralar) Xoja Yusuf Hamadoniyya nisbat berilishi esa zamonaviy tasavvufshunoslikda isbotlanmagan, chuqur tadqiq etilmagan.

Xojagon tariqatining muborak kalimalari sharhidan so’ng Aliy Safiy g’oyat muhim bir fikrni bayon qilgan. Uning fikricha: “Bularning g’ayridin (ya’ni, mana shu muborak iboralardan) barcha pindosht, ya’ni *ujb* va *g’urur* (manmanlik va o’zini aldash) turur” [Rashahot 57; 2004, 110]. Ya’ni, Xojagon tariqi (yo’li) mansubi ekanligini da’vo qilganlarning mazkur sakkiz kalimotga aloqasi bo’lmagan ishlar bilan mashg’ul bo’lishlari, bu kalimot (muborak iboralar) taqozosiga muvofiq bo’lmagan har qanday yurish-turishlar, barcha xatti-harakatlar, “*ma’rifatlar*” (ya’ni, o’zini olim qilib ko’rsatishga urinish va shu maqsadda so’zamol, gap-so’zga chechan bo’lish), xullas shu kabi holatlar bu o’ziga bino qo’yishlik, aziz umrni isrof qilishlik, demakdir.

“Shu o’rinda “*alfoz-i mustalaha*”, ya’ni ushbu Xojagon istilohlarini, ya’ni xos so’zlarini bayon qilishdan asosiy maqsad nima?” degan savol tug’ilishi mumkin. Aliy Safiyning yozishicha, ma’lumki,

hazrati Xoja Abdulxoliq *sarhalqa-i silsila-i xojagon* (Xojagon tariqatini boshlovchisi)dir, shu boisdan ul zotning “mustalahot” (xos kalimallari)ini bilish ul zot boshlab bergan muborak ma’naviy yo‘l, ya’ni xojagon tariqati (yo‘li)ni yaxshi bilib olish demakdir [Rashahot 15; 2004, 23]:

و جون حضرت خواجه سر حلقهء سلسلهء خواجهگانند لا جرم در ينمقام الفاظ  
مصطلحه ايشان كه

دانستن طریقهء این عزیزان موقوف بر آنست هم بعیارات شریفه این طایفه در ضمن  
یازده رشحہ شرح می یابد بین الاجمال و التفصیل والله یقول الحق و هو یهدی السبیل

Ma’lumki, mumtoz adabiyotimizga taalluqli diniy va tasavvufiy asarlardan ko‘zlangan asl maqsad – “insonni axloqiy ruhda tarbiyalash” [Қудратиллаев 2000, 3] va natijada uning komil inson bo‘lib yetishmog‘iga ko‘makchi bo‘lishdir. Demak, yuqoridagi Xojagon tariqati sakkiz qoidasidan ko‘zda tutilgan maqsad ham aslida eng avvalo e’tiqodiy, so‘ngra ruhiy, axloqiy komillikka yetishishdir. Shundan so‘ng mazkur bobda o‘n bir rashhada Xojagon tariqatining ushbu o‘n bir asos-qoidasi haqida birma-bir batafsil ma’lumot berilgan.

Xojagon tariqatining birinchi qudsiy kalimasi – yuqorida bayon qilinganidek, *هوش در دم* “Hush dar dam” (har lahzada Alloh taolo yodi, zikri bilan deb uyg‘oq bo‘lmoq, ya’ni Alloh zikrini bir lahza ham unutib qo‘ymaslik) deb nomlangan. Oxirgi yuz yillikda deyarli barcha xorijlik tasavvufshunoslarning tadqiqotlarida “Hush dar dam” iborasi haqida qisqacha ma’lumot berilgan, ammo bu iboraning asl mazmuni va mohiyati, uning amaliyotda qanday qo‘llanishi haqida esa umuman so‘z yuritilmagan. Aliy Safiy “Rashahot” asarida mazkur birinchi asos-qoidani mufassal (keng, mukammal, to‘liq) sharhlagan:

رشحہ هوش در دم و آن است که هر نفسی که از درون برآید بایدکه از سر حضور  
رو آگاهی باشد و غفلت بآن راه بیابد

Ya’ni, mazkur iboraning ma’nosi: *“har nafaskim, ichkaridan kelur, u huzur va ogohlik yuzidan bo‘lsin, g‘aflat unga aslo yo‘l topmasin”* [Rashahot 21]. Ya’ni nafas olish bu hayot, tiriklik, demak. Olingan har bir nafas sabab inson tanasida bir ruhoniy quvvat hosil bo‘ladi, ana shu ruhiy quvvat sarfi Haq taoloning amrlari adosidan, zikrdan xoli bo‘lmasligi, solik bor himmatni shu xususga qaratishi, ana shunga xatti-harakat qilishi lozim.

Aliy Safiy mana shu joyda Xojagon mashoyixi mashhurlarining so‘zlarini keltirish orqali mavzuga yanada oydinlik kiritishga harakat qilgan. U eng avvalo, o‘z zamondoshi, Hirot xojagon pirlarining ulug‘i, Mavlono Sa‘duddin Koshg‘ariy (vaf. 860/1455)ning “Hush dar dam, ya’ni bir nafasdan ikkinchi nafasga intiqol (o‘tish,

ko'chish) g'ofillik yuzidan emas, balki huzur, ya'ni ogohlik yuzasidan bo'lsin" degan so'zlarini naql qiladi. Mavlono Koshg'ariyning bu so'zlari ma'nosini biz "Rashahot"da ul zot zikri bayon qilingan maxsus bobdagi bir necha "rashha" (kichik bob)lardan bilib olishimiz mumkin. O'sha o'rinlarda Mavlono Koshg'ariyning "Hush dar dam"ning sharhiga dalolat qilgan quyidagi mazmundagi so'zlari aniq bayon qilingan: "Ey, yoronlar! Har nafasda ranje bordur, o'tib turur, voqif bo'lmoq kerak. Haqq subhonahu va taolo (Parvadigor-i olam, ya'ni Alloh taolo) har doim hozir-u nozir turur. Kerakdurkim, Haq subhonahudin sharm etgaysan (uyalgaysan) va Undin g'aflatda qolmagaysan (Uni unutib qo'ymagaysan). Haq taolo insonga g'oyat yaqin (ya'ni, ma'nau yaqin - B.U.)dir. Shu e'tiqodda (ishonch va tushunchada) bo'lmoq kerak. Hamma yerda - yolg'iz qolinganda ham, odamlar orasida bo'lgan chog'larda ham boodob (odobli) bo'lmoq lozim. Uyda tanho qolgan chog'da ham oyoq uzatib yotishdan uyalmoq lozim. Xususan, xolo joyda (hojatxonada) uyalib, boshini quyi solib, ko'z yumib o'tirmoq kerak. Oshkor-u pinhon, zohir-u botinda Haq taologarost bo'lmoq kerak. Mana shu odobga sidqidildan rioya qilganga bu odob daraja-badaraja ma'lum bo'lib borur (Ta'kid bizniki - B.U.). Inson hamisha o'zini zohiriy va botiniy odoblar bilan orasta tutsin. Zohiriy odobdan murod shariat buyurgan va qaytargan xususlarning rioyasidir. Har doim tahoratda yurmoq, istig'forni (tavbani, "Astag'firulloh" so'zini sidqidildan aytishni) ko'paytirish, iloji boricha kam so'zlamoqlik (kerak). Odoblarning muhimrog'i ko'ngilni ag'yor (begonalar)ning yaxshi-yu yomon xuturi (o'y-fikrlari, qarashlari)dan saqlamoqdir. Bularning har ikkisi (ya'ni, ko'p gapirish va tariqatga begona bo'lganlarning so'zlari, fikr va qarashlari) solikni (tariqat mansubini) Yaratuvchisi Alloh taolodan uzoqlashtirishda bir xil ta'sirga egadir.

Bu toifa ushbularni o'zida kasb etgan, doim Haqq taoloning yodi birla tirik, o'zidan g'oyib (o'zini unutgan) bo'lur. Agar namozda ruku'ga borsalar, xush kelmaskim, andin forig' bo'lsalar (ruku'dan bosh ko'targilari kelmas) va agar namozda sajdaga bosalar, xush kelmaskim, sajdadan bosh ko'tarsalar. Bu toyifa hammadan latifroq (ko'ngli g'oyat nozik, tavhid va ixlosda doimo bardavom) tururlar, Alloh taolo yodidan boshqasiga bir ko'z yumib ochquncha ham tahammullari (toqatlari) yo'qdir. Anbiyo zotlar (payg'ambarlar) ularning bu hollariga rashk eturlar. Va ularning bu rashki (qizg'anishi) bu toyifaning Haqq taolo tarafiga *qurblari* (ya'ni, ma'naviy yaqinligi) jihatidandir.." [Rashahot 163-164].

"Risola-i Qushayriyya"da bu xususga الحال "al-Holu" deb nom-

langan o‘rinda so‘z yuritilganini ko‘rish mumkin. Imom Qushayriyning yozishicha, *hol* qalbga aloqador bo‘lib, unda bardavom bo‘la olish mo‘min insondagi ma‘naviy yuksalishni ta‘minlaydi [Sulamiy 57-58].

“Hush dar dam” kalimasi sharhida Aliy Safiy Xoja Ubaydulloh Ahrorning quyidagi so‘zlarini ham keltirgan: “Bu tariq (yo‘l)da hifz-i nafas, ya‘ni kishining barcha nafaslari huzur va ogohlik yuzasidan bo‘lmog‘i kerak. Nafasini muhofaza qila olmagan kishi uchun “falonche nafas gum karda”, derlarki, murod falonchi *tariq va ravishini* (ya‘ni, yo‘l va maqsadini) yo‘q qilibdi, demakdir” [Rashahot 2004, 38].

“Rashahot”da keltirilishicha, Xoja Bahouddin Naqshbandga ko‘ra, bu yo‘l, ya‘ni tariqatda yo‘l olish nafasni nazorat qilish bilan bo‘lur. Solik na o‘tmishini va na istiqbolini o‘ylagay, balki nafaslari zoe bo‘lmasligi uchun jidd-u jahd qilgay. Buning uchun u nafasning kirishini, chiqishini va hatto ikki nafasi orasini muhofaza, ya‘ni nazorat qilgay, toki nafasning kirib chiqmog‘ida qalbga g‘afolat yo‘l topolmasin [Rashahot 2004, 38]. Mana shu ta‘rifdan ham Xojagon tariqatining, shuningdek, naqshbandiya sulukining nima sababdan hamma zamonlarda va hamma yerda “tariqat-i oliyya”, ya‘ni oliy, eng yuksak tariqat deb e‘tirof etilib kelinayotganini bilib olish mumkin. Zero, Xojagondan boshqa tariqatlarda bunday o‘ziga xos talab-qoidalar qat‘iy mavjud emas. Misol uchun, chilla riyozati boshqa tariqatlarda (masalan, Qodiriyya sulukida) talab qilingan, ammo Xojagonda “xilvat dar anjuman”, ya‘ni xalq bilan muloqot asnosida, kundalik faoliyatda bo‘laturib doimo tahoratli bo‘lmoq, zikr, tafakkur, muroqaba bilan (Alloh taoloning doim hozir va noziriligini his qilgan holda) yurmoq kabi o‘ziga xos talablar mavjuddir. Biz bu xususda boshqa o‘rinda, ya‘ni Xojagon tariqatining “xilvat dar anjuman” qudsiy kalimasi tadqiqi bayonida bu xususda batafsil to‘xtalamiz.

Shu o‘rinda Aliy Safiy “Rashahot”da ustoz Mavlono Abdurahmon Jomiy o‘zining “Sharh-i Rubo‘iyyot” (Ruboiylar sharhi) asari oxirida keltirgan muhim bir ma‘lumotni naql qilgan. Mavlono Jomiyning yozishicha, Shayx Abuljanob Najmu-l-Kubaro (ya‘ni, Shayx Najmiddin Kubro – B.U.) o‘zining “Favotih al-jamol” risolasida bunday deb yozgan: “Zikr, ya‘ni Haq taoloning g‘ayb-i huviyyatiga ishorat qiluvchi “Hu” zikri barcha jonzotlarning nafaslarida joriy. Hatto “Alloh” lafzida ham asos “Hu”dir. Zero, “Alloh” lafzida “alif va lom” ta‘rif uchun, “lom”dagi tashdid esa mubolag‘a uchundir. Olingan va chiqarilgan nafaslarning oxirida “ho” bordir. Bu esa zikrdir” [Rashahot 2004, 40].

To'g'ri ta'kidlanganidek, solik inson (tariqat mansubi) o'zi nafas olib berayotganidagi "hu" sasi Alloh taoloning g'aybiy huviyyat Zotini eslatadi. Olib berilayotgan har nafas bir xazinadir [Necdet 335]. Ammo afsuslar bo'lsinki, aksariyat insonlar bu Ilohiy ehsondan g'ofildirlar, shukr qilmaslar. "*Hush dar dam*" kalimasining ikkinchi bir ma'nosi bu tariqat mansubining o'zi ichida bo'lgani hol va maqomga diqqat-e'tiborli bo'lmog'idir [Қудратиллаев 2000, 1].

Hadisi shariflarda ham هو "*Hu*" ismi Ism-i a'zam (Haq taoloning eng ulug' nomi)dir, deyilgan, shunga binoan bu muborak Ilohiy ism xos zotlar va hatto xosu-l-xos bo'lgan orif insonlarning zikri hisoblanadi.

Zikr haqida manbalarda Xoja Alouddin Attorning quyidagi muhim so'zlari naql qilingan:

"Bizning zamonimizda aksariyat insonlar qalb bilan emas, oshqozonlari bilan zikr etmoqdalar. Maqsad ko'p zikr qilmoqlik emas. Murid (tariqat mansubi) har nafasida uch marta zikr qilur. O'ng tarafidan boshlar va dilga tushirgay... Bomdod namozidan oldin va shom namozi adosidan so'ng xoli bir joyda zikrullohda davom etgay. U bir nafasda to'qqiz va yoki o'n sakkiz marta zikr qilishi mumkin. O'n sakkiz martagacha zikr qilsa-yu, biron natija bo'lmasa, u holda zikrullohni boshidan boshlaydi" [Maqomoti ... 160].

Aliy Safiyning naql etishicha, Xoja Ubaydulloh Ahror o'zining qudsiy kalimalari hisoblangan bir risolasida bunday degan: "Zikrning mohiyati zikr qilguvchining qalbi muhabbat va ta'zim sharti bilan Haq taoloni aslo unutib qo'ymasligidir" [Rashahot 11]:

و حضرت ایشان در بعضی از کلمات قدسیه خود نوشته اندکه مقصود از ذکر آن اسنت که دل همیشه آکاد به حق سبحانه باشد بوصف محبت و تعظیم

"*Hush dar dam*" kalimasi sharhida Aliy Safiy ikkita ruboiy keltirgan. Birinchi ruboiy [Rashahot 11-12]:

رباعیه ای مانده ز بحر علم بر ساحل عین

در بحر فراغت و بر ساحل شین

بردار صفی نظر ز موج کونین

آگاه ببحر باش بین النفتین

*Ey monda zi bahr-i ilm bar sohil-i ayn,*

*Dar bahr farog'at-ast-u bar sohil shayn.*

*Bardor Safiy nazar zi mavj-i kavnayn,*

*Ogoh ba bahr bosh bayna-n-nafasayn.*

Mazkur ruboiy Aliy Safiy qalamiga mansub bo'lib, uchinchi misradagi "Safiy" kalimasi shoirning taxallusidir. Shoir bu yerda ruboiy o'zining qalamiga mansub ekaniga ishora qilgan. Ammo "Rashahot" ning 2003 va 2004-yillar nashrlarida tabdilda bu so'z

“sarfi” shaklida xato berilgan [Rashahot 2004, 11]:

Mazmuni: *Ey, ilm dengiziga kirmay, sohilda qolgan,  
Dengizda farog‘at bor, sohilda esa baxtsizlik.*

*Kavnayn (dunyo va oxirat) mavjlariga mahliyo bo‘lishni to‘xtat,  
Har ikki nafas o‘rtasida sen dengizdan ogoh bo‘l!*

Deyarli barcha tadqiqotlarda, xususan, S.Sayfullohning “Xojagon-naqshbandiya. Rashhalar” kitobida ham mazkur ruboiy ushbu xatolik bilan keltirilganini ko‘ramiz.

“Rashahot”da “Hush dar dam” kalimasi sharhi bayonida asar muallifi tomonidan keltirilgan ikkinchi ruboiy quyidagichadir [Rashahot 2004, 39]:

ها غيب هويت آمد ای حرف شناس  
و انفاس ترا بود بر آن حرف اساس  
باش آکه از آن حرف در امید و هراس  
حرفی کفتم شکر ف اگر داری باس

*“Hu” g‘ayb-i huviyyat omad, ey harf-shunos,  
Va anfos-i to‘ro buvad bar on harf asos,  
Bosh ogoh az on harf dori ummed-u haros,  
Harfe go‘ftam shugraf agar dori pos.*

*Mazmuni:*

“Ho” Allohning borliq mohiyat harfidir, ey tadqiqotchi,  
Sen olayotgan har bir nafas ana shu harf asosidadir.  
Umid va qo‘rquv onlarida sen shu harfdan ogoh bo‘l,  
Agar diqqat qilsang, men nodir bir so‘z aytdim.

Bu ruboiy Mavlono Abdurahmon Jomiy qalamiga mansub. Zero, Aliy Safiy ruboiydan so‘ng “Maxfiy qolmasun-kim, g‘ayb-i huviyatkim, hazrat Maxdumiy (Mavlono Abdurahmon Jomiy) bu ruboiyda aytibdurlar, tahqiqning istilohida iboratdur Zot-i Haqq subhona-hudin lo ta‘yin e‘tibori bila, ya‘ni itloq-i haqiqiy sharti bilakim, lafz-i itloq bila muqayyad emasdur va mumkin ermaskim, bu martabada hech ilme va idroke aslo anga taalluq topg‘oy va bu haysiyyatdin majhul-i mutlaq turur”, deb yozgan [Rashahot 2004, 39].

Aliy Safiy Abdurahmon Jomiy ruboiysidagi “g‘ayb-i huviyyat” iborasini ana shunday izohlagan. Demak, “G‘ayb-i huviyyat” iborasidan murod bu Alloh taoloning Zotidir va tariqat mansubiga Alloh taoloni har doim yodda tutmoqligi lozim bo‘ladi.

## **Xulosa**

Mavlono Faxruddin Aliy Safiy Hiraviy o‘zidan boy ilmiy-adabiy,



